

SHHT NING MINTAQAVIY XAVF-XATAR VA TAHDIDLARNI NEYTRALLASHDAGI O'RN

Nizom Xakimov

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
"Xalqaro munosabatlar" yo'nalishi talabasi, mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shanxay Hamkorlik Tashkilotining (ShHT) Yevroosiyo mintaqasida barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rne va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. ShHT o'z faoliyati davomida xalqaro siyosatda nufuzga ega bo'lib, mintaqaviy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashish uchun samarali mexanizmlar va mustahkam qonunchilik bazasini shakllantirgan. Ayniqsa, 2021-yilda AQSh qurolli kuchlari Afg'onistondan olib chiqilgach va "Tolibon" hokimiyatni egallagach, yuzaga kelgan xavf-xatarlar, jumladan, terrorizm, narkotik moddalar savdosi, noqonuniy migratsiya va gumanitar inqirozlar, ShHT uchun muhim muammolar sifatida qayd etiladi. Maqolada tashkilotga a'zo davlatlarning milliy manfaatlari va xavfsizligi afg'on masalasiga bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi. ShHTning 2021-yil sentabr oyida Dushanbeda bo'lib o'tgan yubiley sammitida tashkilotga a'zo davlatlar afg'on masalasini siyosiy-diplomatik yo'llar orqali hal qilish va Afg'onistonda barcha etnik, diniy va siyosiy guruhlar ishtirokida inklyuziv hukumat tuzish zarurligi bo'yicha umumiy pozitsiya qabul qilishgani yoritilgan. Shuningdek, to'liq ishtirokchi sifatida Eron mintaqaviy muammolarni hal qilishda tashkilot uchun qo'shimcha ustunlikka aylandi. Eronning Afg'oniston rivojlanishiga ta'sir qilish imkoniyati yangi afg'on hukumati bilan muloqot o'rnatishda asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, ShHTning xavfsizlik sohasidagi integratsion imkoniyatlari va uning afg'on masalasidagi ijobiy roli ham yoritilgan. Mazkur maqola tashkilotning mintaqaviy tahdidlarga qarshi kurashda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: "uch yovuz kuch", terrorizm, ShHT, RATS, Tinchlik missiyasi, Tolibon

Kirish: ShHT (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti) hududiy integratsiya tashkiloti sifatida tashkil etilganligi haqida 2001-yil 15-iyun kuni Shanxayda o'tgan sammitda e'lon qilingan. "Shanxay beshligi" tarkibiga O'zbekiston ham to'la huquqli a'zo sifatida qo'shildi. O'sha paytda ikkita muhim hujjat — ShHTni tuzish to'g'risidagi Deklaratsiya va Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi Konvensiya imzolangan. Tashkilotning asosiy vazifalari sifatida ShHT hududida barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash belgilangan. Bunga terrorizm, ekstremizm, separatizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, shuningdek, iqtisodiyot, energetika va gumanitar sohalarida hamkorlikni rivojlantirish

kiradi. “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Konvensiya” da terrorizm, separatizm va ekstremizm tushunchalarining kelishilgan ta’riflari keltirilgan, bu esa ushbu “uch yovuz kuch”ga qarshi samarali kurashishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bunday muvaffaqiyatni hech bir xalqaro tashkilot, jumladan, BMT ham qo‘lga kirita olmagan[1]. Biroq, G‘arb mamlakatlarining akademik va ekspertlar jamoasi darhol ShHTni AQSh va Yevropaning Yevroosiyo mintaqasidagi strategik manfaatlariga tahdid sifatida ko‘ra boshladi. ShHTni “autokratlar klubi” deb atashgan, uning asosiy maqsadi “rangli inqiloblar”ni jilovlash va G‘arb davlatlarining demokratiyani ilgari surishga qaratilgan harakatlarini kamaytirish ekani aytilgan[2]. Ammo ShHT hech qachon harbiy-siyosiy ittifoqqa aylanish va biror davlatga qarshi chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymagan. Birinchidan, bu tashkilotning barcha rasmiy hujjatlariga zid hisoblanadi, ikkinchidan esa, ShHT a‘zo davlatlarining G‘arb mamlakatlari bilan hamkorlikka bo‘lgan qiziqishlarini murakkablashishiga olib keladi[3]. Postbipolyar davrda ShHT ishtirokchi davlatlari yangi hamkorlik formatini ko‘proq o‘zaro aloqalarni mustahkamlash va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar bo‘yicha pozitsiyalarni muvofiqlashtirish imkoniyati sifatida ko‘rgan[4]. Ochiqlik va qarama-qarshilikka yo‘l qo‘ymaslik tamoyillari “Shanxay ruhi” deb nomlangan konsepsiyaga asos bo‘lgan. Ushbu birlashtiruvchi konsepsiya asosida teng huquqlilik, o‘zaro hurmat, bir-birining qarash va yondashuvlarini qadrlash, madaniyatlar, urf-odatlar va turmush tarzlar xilma-xilligi tamoyillari doirasida ko‘p tomonlama hamkorlikni mustahkamlash nazarda tutilgan[5]. Ushbu xususiyatlar tashkilotning ijobiy imidjini shakllantirdi va uni jahon arenasida jozibador qildi.

Asosiy qsim: Hozirgi bosqichda tashkilot tarkibiga Rossiya, Xitoy, Markaziy Osiyo davlatlari (Turkmanistondan tashqari), Hindiston, Pokiston va Eron (uning qo‘shilish jarayoni 2021-yil sentabrdan boshlangan) kiradi. ShHT tarkibiga, shuningdek, kuzatuvchi maqomiga ega davlatlar — Afg‘oniston, Belarus, Mongoliya kiradi. Ozarbayjon, Armaniston, Kambodja, Nepal, Turkiya, Shri-Lanka kabi davlatlar esa ShHTning muloqot bo‘yicha hamkorlari hisoblanadi. 2021-yil sentabr oyida Turkmaniston tashkilot sammitida tashkilotning faxriy mehmoni sifatida ishtirok etdi. ShHTning umumiy salohiyatini baholash anchayin qiyin: birinchidan, tashkilotga a‘zo davlatlarda dunyo aholisining deyarli yarmi istiqomat qiladi; ikkinchidan, yer yuzasining to‘rttdan bir qismini egallagan ushbu davlatlar hududida boy resurs salohiyati mavjud; uchinchidan, ularning harbiy qudratdir. ShHTga qo‘shilgan davlatlarni kelajakdagi jahon tartiboti haqida umumiy qarashlar birlashtiradi, bu esa bir kuchning diktaturasiga emas, balki har bir davlatning huquq va manfaatlarini hurmat qilishga asoslanishi kerak. ShHT shakllanayotgan ko‘p qutbli dunyo markazlaridan biri sifatida xalqaro huquq tamoyillari va me‘yorlariga rioya qilish tarafdori. ShHTning

tashkil etilishi sovuq urushdan keyingi dunyoda muhim voqea bo'ldi va bir qutbli dunyo nazariyasi va amaliyotini ishonchli rad etdi [6].

ShHTning xavfsizlik sohasidagi faoliyati

SHHTga a'zo davlatlar Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqdan boshlanib, Kavkaz va Kaspiy orqali Markaziy va Janubiy Osiyoga cho'zilgan keng "beqarorlik yoyida" joylashganligi sababli, tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashdir. Ushbu masalada ShHT ko'p narsaga erishdi [7]: birinchidan, an'anaviy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish uchun mustahkam normativ-huquqiy asos ishlab chiqildi va u doimiy ravishda takomillashtirilib borilmoqda; ikkinchidan, qo'shma antiterror mashqlari o'tkazilmoqda; uchinchidan, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarining muntazam uchrashuvlari tashkil etilmoqda. ShHTning asosiy yutuqlaridan biri bu 2002-yilda Toshkentda shtab-kvartirasi joylashgan Mintaqaviy antiterror tuzilmasi (RATS)ning tashkil etilishidir. RATS mintaqaviy va global darajadagi "uch yovuz kuch"ga qarshi kurashda muvofiqlashtiruvchi markazga aylandi. XXI asr boshlarida postsovet hududida sodir bo'lgan "rangli inqiloblar" to'liqini ShHTning mintaqaviy xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratishiga sabab bo'ldi. G'arb davlatlari tomonidan noqulay siyosiy rejimlarni ag'darish urinishlari fonida ShHTga a'zo davlatlar mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash mas'uliyatini o'z zimmasiga olish bo'yicha muhim qaror qabul qildi. Shu tariqa, 2005-yil 5-iyulda Ostona shahrida o'tkazilgan ShHT sammitida tashkilotga a'zo davlatlar AQShdan Markaziy Osiyodagi bazalarini olib chiqish muddatini belgilashni talab qilib chiqdi [8].

ShHTning xavfsizlikka qaratilgan e'tibori 2015-yil iyul oyida Ufa shahrida bo'lib o'tgan sammitda qabul qilingan ShHTni 2025-yilgacha rivojlantirish strategiyasida o'z aksini topdi. Ushbu hujjatda, tashkilotning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlari sifatida terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotik moddalar, qurol-yarog', o'q-dorilar va portlovchi moddalar, shuningdek, yadro va radioaktiv materiallarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish belgilandi [9]. 2018-yilda ShHTning huquqiy bazasi xavfsizlik sohasida yangi hujjatlar bilan to'ldirildi: birinchidan, 2019–2021-yillarda terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha ShHT davlatlari hamkorligi dasturi qabul qilindi; ikkinchidan, 2018–2023-yillar uchun ShHT davlatlari narkotik moddalarga qarshi strategiyasi tasdiqlandi [10]. ShHT doirasida antiterror mashqlari mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha asosiy mexanizmlardan biriga aylandi. Ushbu mashqlar uch xil ko'rinishda o'tkaziladi [10]: ShHTning RATS (Mintaqaviy antiterror tuzilmasi) tashabbusi ostida maxsus xizmatlar va huquqni muhofaza qilish organlari mashqlari; qo'shma chegara operatsiyalari (QChO); hamda qurolli kuchlarning qo'shma antiterror mashqlari — "Tinchlik missiyasi". 2021-yil mart oyida ShHT RATSning 36-yig'ilishida 2022–2024-yillarda terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash

bo'yicha hamkorlik dasturi loyihasi ma'qullandi. Uchrashuv davomida ShHTga a'zo davlatlarning maxsus xizmatlari vakillari 2021-yilda navbatdagi qo'shma antiterror mashqlari — “Pabbi-Antiterror-2021”, chegarachilar xizmatlarining sakkizinchi yig'ilishi va SHHT RATSning sakkizinchi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasini o'tkazish masalalarini muvofiqlashtirdilar [11]. 2021-yil 20–24-sentabr kunlari Orenburg viloyatidagi Donguz poligonida o'tkazilgan “Tinchlik missiyasi — 2021” mashqlarida ShHTga a'zo 8 davlatdan besh yarim mingdan ortiq harbiy xizmatchi va bir necha ming harbiy texnika ishtirok etdi [12]. Afg'onistondagi notinch vaziyat va mintaqaviy beqarorlik xavfining oshishi fonida ushbu mashqlar ShHT harbiylarini terrorchilar tomonidan ehtimoliy hujumlarga tezkor javob qaytarishga tayyorlash imkonini berdi [12].

ShHT doirasidagi Afg'on masalasi va Markaziy Osiyo mamlakatlari

ShHTning jamoaviy ishida Afg'oniston masalasi markaziy o'rinni egallaydi, chunki ushbu mamlakatdagi doimiy beqarorlik tashkilotga a'zo davlatlarning milliy manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. 2005-yilda Afg'onistondagi salbiy voqealarni oldini olish maqsadida “ShHT — Afg'oniston” Aloqa guruhi tashkil etildi. Ushbu guruh hamkorlik masalalari bo'yicha birgalikda maslahatlashuvlar o'tkazish maydoniga aylandi. 2012-yilda ShHTning navbatdagi sammitida misli ko'rilmagan qaror qabul qilindi — Afg'onistonga to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvchi maqomi berildi va hamkor maqomi chetlab o'tildi [13]. 2021-yil avgustida Afg'onistonda hokimiyat o'zgarishi ShHT oldiga ushbu yo'nalishdagi ishlarni kuchaytirish vazifasini qo'ydi. Ayni paytda tashkilotga a'zo davlatlar diqqat-e'tibori narkotiklarning noqonuniy aylanmasi, qochqinlar oqimi va radikal islomchilikning tarqalishi kabi keskinlashgan masalalarga qaratilmoqda. Shuningdek, Afg'onistonga gumanitar yordam ko'rsatish muammosi dolzarb masala sifatida kun tartibida turibdi. Yangi Afg'oniston hukumati AQShning sobiq afg'on hukumatining 9,5 milliard dollar miqdoridagi moliyaviy aktivlarini muzlatib qo'yish qarori sabab juda og'ir ahvolda qolmoqda [14]. ShHTga a'zo mamlakatlarning Afg'oniston masalasiga nisbatan yondashuvlari bir-biridan sezilarli darajada farqlanmoqda. Masalan, Tojikiston pozitsiyasi boshqa davlatlardan keskin farq qiladi. Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon “Tolibon” harakatini (Rossiyada taqiqlangan) Afg'onistondagi qonuniy kuch sifatida tan olishga qarshi chiqdi. U barcha etnik guruhlar vakillarini o'z ichiga olgan inklyuziv hukumatni tezroq tuzish zarurligini ta'kidlaydi [15]. Afg'onistonda yashovchi etnik tojiklar (46%) davlat boshqaruvida qatnashishi lozim, deb hisoblaydi [16]. Bundan tashqari, Tojikiston Afg'oniston bilan bir qator strategik transport-kommunikatsiya loyihalari bilan bog'langan. Ayniqsa, Qirg'iziston–Tojikiston–Afg'oniston–Eron transport yo'lagi va Tojikiston–Afg'oniston–Turkmaniston temir yo'l loyihalari diqqatga sazovor. Ushbu loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi Tojikistonni barqaror iqtisodiy rivojlanish yo'liga olib chiqishi mumkin. Shu sababli, Tojikiston hukumati

Afg'onistonda ichki siyosiy vaziyatni barqarorlashtirishga intilmoqda. Rasmiy darajada Qirg'iziston ham yangi afg'on hukumatini tan olmadi, biroq "Tolibon" bilan muloqot qilish zarurligini ta'kidladi [17]. 2021-yil sentabr oyida Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov tashabbusi bilan Afg'onistonga Qirg'iziston Xavfsizlik kengashi boshchiligidagi delegatsiya yuborildi. Delegatsiyaning vazifasi afg'on hukumatiga gumanitar yordam yetkazish va diplomatik muzokaralar o'tkazish edi. Uchrashuv davomida tomonlar Afg'oniston ichki siyosiy vaziyatini va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash yo'llarini muhokama qildilar [18]. O'zbekiston rahbariyati ham Afg'onistonning yangi hukumati bilan muzokaralarga tayyor ekanligini ko'rsatdi va moliyaviy holat barqarorlashganidan keyin qo'shma ikki tomonlama loyihalarni amalga oshirishga umid bildirdi. 2021-yil 17-sentabrda Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan sammitda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Afg'onistonning xorijiy banklardagi davlat aktivlarini muzlatib qo'yishni bekor qilishni taklif qildi, bu bilan mamlakatda gumanitar inqirozni oldini olishga umid bildirdi [19]. O'zbekiston Afg'oniston orqali o'tadigan Transafg'on koridori (Mozori-Sharif–Qobul–Peshovar) loyihasiga katta umid bog'lamoqda. Ushbu loyiha Afg'onistondagi vaziyat barqarorlashgandan so'ng amalga oshirilishi mumkin. Ammo hozirgi sharoitda O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan transport-loyiha tashabbuslarini yaqin kelajakda amalga oshirish qiyin bo'lib tuyulmoqda. Qozog'iston ehtiyotkor pozitsiyani egallab, Afg'onistondagi yangi hukumat bilan muloqot qilishga tayyor ekanini bildirdi. Buning asosiy maqsadi o'tkir gumanitar muammolarni hal qilishdan iboratdir [20]. ShHT a'zosi bo'lmagan, biroq Afg'oniston bilan geografik chegaraga ega bo'lgan Turkmaniston, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. 2021-yil 17-sentabr kuni Dushanbeda ShHT sammitida faxriy mehmon sifatida qatnashgan Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, ShHT mamlakatlari bilan terrorizm, uyushgan jinoyatchilik va narkotik moddalar noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashda faol hamkorlikka tayyor ekanligini ta'kidladi [21]. Shuningdek, Turkmaniston Afg'onistonning yangi rahbariyati bilan ikki tomonlama muzokaralar olib borishga qiziqish bildirmoqda. TAPI gaz quvuri loyihasi bu davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, u orqali Turkmaniston Janubiy Osiyo mamlakatlariga gaz eksport qilishni rejalashtiradi. 2021-yil oktabr oyida Turkmaniston tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov va Afg'onistonning yangi rahbariyati o'rtasida ushbu loyihani qayta boshlash masalasi muhokama qilindi [22]. Rossiya va Xitoy Afg'oniston masalasida asosiy barqarorlashtiruvchi kuch sifatida faoliyat olib bormoqda. 2021-yil avgust oxirida V. V. Putin va Si Szinpin Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va "mintaqa yaqinidagi hududlarga beqarorlik tarqalishiga" yo'l qo'ymaslikka tayyor ekanliklarini bildirdilar [23]. Rossiya va Xitoy ShHTning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish zarurligini ta'kidlab, Afg'oniston iqtisodiyotini tiklashda yordam berishga tayyor ekanliklarini ma'lum qildilar. Biroq

bu, yangi afg'on hukumati radikal guruhlar faoliyatini nazorat qilish sharti bilan amalga oshiriladi. 2021-yil 17-sentabrda Dushanbeda o'tgan ShHTning 20 yillik yubiley sammitida Afg'oniston muammosini siyosiy-diplomatik vositalar bilan hal qilish kerakligi ta'kidlandi. Sammit yakunida qabul qilingan Dushanbe deklaratsiyasida Afg'onistonda barcha etnik, diniy va siyosiy guruhlar vakillarini o'z ichiga olgan inklyuziv hukumat tuzish zarurligi qayd etildi. Shuningdek, ShHT terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha uch yillik hamkorlik dasturini qabul qildi. Shu bilan birga, Eronning ShHTga to'laqonli a'zo sifatida qabul qilinishi jarayoni boshlanishi muhim voqea bo'ldi. Bu qaror ShHTning xalqaro miqyosdagi salohiyatini oshirishga xizmat qiladi [24].

Eron va ShHT: O'zaro manfaatli hamkorlik

Afg'onistondagi vaziyatning keskinlashishi sharoitida ShHT a'zo davlatlarining Eronni to'laqonli ishtirokchi sifatida tashkilotga qabul qilish qarori zarur bo'lib ko'rinadi. Eron, Afg'oniston bilan umumiy geografik chegaraga ega bo'lib, madaniy va lingvistik o'xshashlikni hisobga olgan holda, ushbu davlatdagi ichki siyosiy barqarorlikdan manfaatdor. Shia ozchiligi, hazoralar va tojiklar bilan yaqin aloqalari orqali Eron Afg'onistonda o'z manfaatlarini ilgari surib kelgan [25]. Eron tojik va hazora partiyalarini - "Jamiat Islomiy" va "Hizbi Vahdat"ni qo'llab-quvvatlagan [26]. Bundan tashqari, Eron rahbariyati G'iroat, Foroh hamda asosan shialar yashaydigan Bomiya, Daykundi va Gor viloyatlariga sarmoya kiritgan [26]. Eron har doim Afg'onistondagi voqealarni diqqat bilan kuzatib kelgan va ushbu hududdan kelayotgan xavf-xatarlarni bartaraf etishda faol qatnashgan. Shu bilan birga, Eron mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni xorijiy davlatlar emas, balki mintaqa davlatlari ta'minlashi kerak, deb hisoblaydi [27]. AQShning Afg'onistondan chiqishi Evroosiyo davlatlari uchun afg'on masalasida faol siyosiy-diplomatik harakatlarni katalizatori bo'lishi kerak. Eron rahbariyati xalqaro terrorizm va narkotiklar kontrabandasi kabi masalalardan chuqur tashvishda, chunki bu tahdidlar bevosita Eron milliy xavfsizligini qamrab oladi. Eron narkotiklar bilan kurashda Afg'oniston bilan ikki tomonlama hamkorlikka tayyor ekanligini namoyish etgan [28]. Ammo, Eronda ushbu tahdidlarga samarali qarshi kurashish faqat kollektiv yondashuv va pozitsiyalarni muvofiqlashtirish orqali amalga oshishi mumkinligini tushunishadi. Shu sababli, 2018-yil sentabrda Afg'oniston va Eron bir tomonda, Rossiya va Xitoy esa ikkinchi tomonda terroristik tashkilotlarning yagona bazasini yaratish va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha kelishuvga erishgan [28]. Eron Afg'onistonni rivojlantirishda eng faol ishtirok etgan davlatlardan biridir. Ikkala davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik ikkala tomon uchun ham foydali bo'lgan. Afg'onistondan Eronga yiliga 1,5 milliard dollargacha naqd pul kelib tushgan [29]. Eron Afg'onistonga energetik bo'lmagan mahsulotlar - qurilish materiallari, plitka, keramika eksport qilgan. Eron transport va energetika infratuzilmasini tiklash, qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida

Afg'onistonga moliyaviy yordam ko'rsatgan. Afg'oniston Eron va Markaziy va Janubiy Osiyoni birlashtiruvchi yirik transport-kommunikatsiya loyihalarining potentsial ishtirokchisi sifatida ko'rilgan [29]. Shunday qilib, 2019-yilda ochilgan Afg'oniston - Eron - Hindiston savdo koridori orqali Afg'oniston Hindistonga o'z mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Qiziqarli tomoni shundaki, Eronga nisbatan xalqaro sanksiyalarni kuchaytirish tashabbuskorlaridan biri bo'lgan AQSh ushbu transport koridorini sanksiyalar doirasidan chiqardi. AQSh ma'muriyatining ushbu loyihani qo'llab-quvvatlashi, Markaziy Osiyo davlatlarini kelajakda ushbu loyihaga qo'shish va ularning Rossiyaga transport bog'liqligini kamaytirishga qaratilgan [31].

Xulosa: 2021-yil avgust oyida Tolibon boshchiligida Afg'onistonda yangi siyosiy rejimning o'rnatilishi mintaqaviy tahdid va xavflarni kuchaytirdi. Ularni bartaraf etish ShHT kabi ko'p tomonlama hamkorlik formatlarining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. ShHT o'z faoliyati davomida nafaqat mintaqaviy tahdid va xavflarga qarshi kurashishga tayyor ekanligini namoyish etdi, balki terrorizmga qarshi kurashda mustahkam huquqiy asos va mexanizmlarni ham yaratdi. Hozirda, Afg'onistonda hokimiyat almashgani munosabati bilan, ShHT mavjud siyosiy-diplomatik salohiyatni to'liq ishga solib, mintaqadagi vaziyatni barqarorlashtirishga harakat qilishi kerak. Afg'onistonda ichki siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish Evroosiyo davlatlarini qiziqtirgan energetika va transport sohasidagi qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Alimov R. Shanghai Cooperation Organization: formation, development, prospects. Moscow: Publishing House «The Whole world»; 2017. 368 p. (In Russ.).
2. Ziegler E. Charles. Central Asia, the Shanghai Cooperation Organization, and American Foreign Policy. Asian Survey. 2013;53(3):484-505.
3. Lukin A.V. Shanghai Cooperation Organization and Russian interests in Central Asia and Afghanistan. Bulletin of MGIMO University. 2011;5(20):37-47. (In Russ.).
4. Lukin A. V. Shanghai Cooperation Organization: in search of a new role. 2015. July 9. URL: <https://globalaffairs.ru/articles/shanhajskaya-organizatsiya-sotrudnichestva-v-poiskah-novoj-rol/>
5. Narysov S. J. SCO: achievements and prospects. Shanghai Cooperation Organization and the modern world. Analytical reports of MGIMO Ministry of Foreign Affairs of Russia. May. Moscow: 2007. Issue 3(18). 74 p. (In Russ.).
6. Chuphrin G. SCO: Que vadis. International life. 2008;6:53-64. (In Russ.).

7. Barsky K. Shanghai Cooperation Organization on the eve of the Bishkek Summit: the main tasks of the moment. 2013. May 22. URL: <https://interaffairs.ru/news/show/9544>
8. Efremenko D.V. Shanghai Cooperation Organization after expansion: new challenges and prospects. West. Moscow. un-ta. Ser. 25. International relations and world politics. 2019;11(3):128-159. (In Russ.).
9. Development Strategy of the Shanghai Cooperation Organization until 2025. URL: <http://static.kremlin.ru/media/events/files/ru/a3YPpGqLvQI4uaMX43lMkrMbFNewBneO.pdf>
10. Alimov R. The summit in Qingdao became a milestone for the SCO. 2018. June 10. URL: <https://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/5280634>
11. The special services of the SCO countries approved the draft anti-terrorism program for 2022-2024. 2021. March 18. URL: <https://www.ritmeurasia.org/news-2021-03-18-specsluzhby-stran-shos-odobrili-proekt-programmyborby-s-terrorizmom-na-2022-2024-gg.-53778>
12. On the SCO joint military exercises “Peace Mission–2021”. 2021. September 29. URL: http://rus.sectsco.org/archive_news/20210929/782852.html
13. Mezentsev D. SCO strategy — development and expansion. 2015. December 30. URL: <https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/comments/strategiya-shos-razvitiye-irasshirenie/>
14. The US Treasury has stated that it is not going to unfreeze the financial assets of Afghanistan. 2021. October 19. URL: <https://tass.ru/ekonomika/12705467>
15. Meeting with the Minister of Foreign Affairs of the Islamic Republic of Pakistan Makhdoom Shah Mahmoud Kureishi. 2021. July 12. URL: <http://prezident.tj/ru/node/26368>
16. Rahmon called for the inclusion of Tajiks in the government of Afghanistan. 2021. September 24. URL: <https://tj.sputniknews.ru/20210924/rahmon-afghanistan-pravitelstvo-tadzhiki-1042468623.html>
17. The Kyrgyz authorities have expressed their position on the Taliban. 2021. November 5th. URL: <https://rus.azattyk.org/a/31546943.html>
18. Diplomats from Kyrgyzstan met with the Taliban on behalf of Zhaparov. 2021. September 24. URL: <https://tj.sputniknews.ru/20210924/taliban-afghanistan-kyrgyzstan-zhaparov-1042469925.html>
19. Uzbekistan proposed to unfreeze the assets of Afghanistan in foreign banks. 2021. September 17. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/09/17/frozen-assets/>
20. Tokayev outlined Kazakhstan’s position on Afghanistan. 2021. September 9. URL: <https://orda.kz/tokaev-oboznachil-poziciju-kazahstana-po-afganistanu/>

21. The President of Turkmenistan took part in the SCO summit as an honorary guest. 2021. September 18. URL: <https://e-cis.info/news/568/94710/>
22. The Ministry of Foreign Affairs of Turkmenistan held talks with the Taliban: results. 2021. October 31. URL: <https://tj.sputniknews.ru/20211031/turkmenistan-peregovory-taliby-1043195233.html>
23. Putin and Xi Jinping discussed the situation in Afghanistan by phone. 2021. August 25. URL: <https://www.interfax.ru/world/786496>
24. Kortunov A. International multilateralism: opportunities and constraints. 2021. August 30. URL: <https://russiancouncil.ru/activity/workingpapers/mezhdunarodnaya-mnogostoronnost-vozmozhnosti-i-ogranichiteli/>
25. Fedorova I.E. Iranian-Afghan relations at the present stage. Eastern Analytics. 2019;4:135-141. (In Russ.).
26. Partnership between Russia and Iran: current state and prospects of development. INF report №29. Moscow: INF; 2017. 183 p. (In Russ.).
27. Karami J. Central Eurasia needs institutions. 2009. July 5. URL: <https://globalaffairs.ru/articles/czentralnoj-evrazii-nuzhny-instituty>
28. Kirichenko V.P. Participation of the Khazars of Afghanistan in the Syrian conflict. Russia and the Muslim world. 2019;4(314):70-78. (In Russ.).
29. Kortunov A. Solving the problem of Afghanistan: necessary conditions and international consequences. INF report №76. Moscow: INF; 2021. 42 p. (In Russ.).
30. The Afghanistan-Iran-India trade corridor has been opened through the port of Chabahar. 2019. February 25. URL: <http://casp-geo.ru/otkryt-torgovyj-koridor-afganistan-iran-indiya-cherez-port-chabahar>
31. Knyazev A. About the fate of trans-Afghan projects. 2021. June 29. URL: <https://ia-centr.ru/experts/aleksandr-knyazev/aleksandr-knyazev-o-sudbakh-transafganskikh-proektov/>